

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BOBOQANDOV NODIRJON FAZLIDDIN O‘G‘LI**

***LEONTICE L. TURKUM TURLARINING SENOPULYATSIYASI VA  
ONTOGENETIK STRUKTURASI***

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on biological sciences**

**Boboqandov Nodirjon Fazliddin o‘g‘li**

*Leontice* L. turkum turlarining senopopulyatsiyasi

va ontogenetik strukturasi ..... 3

**Бобокандов Нодиржон Фазлиддин угли**

Ценопопуляция и онтогенетическая структура

видов рода *Leontice* L. .... 21

**Bobokandov Nodirjon Fazliddin ugli**

Cenopopulation and ontogenetic structure of the

genus of *Leontice* L. species. .... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD 03/30.12.2019.B.02.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**BOBOQANDOV NODIRJON FAZLIDDIN O‘G‘LI**

***LEONTICE L. TURKUM TURLARINING SENOPOPULYATSIYASI VA  
ONTOGENETIK STRUKTURASI***

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1014 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nomozova Zebunniso Baxronovna**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Shomurodov Xabibullo Fayzulloevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Keldiyarov Xudayar Otamuradovich**  
biologiya fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.02.08 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo instituti binosi 2-qavat majlislar zali. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks (+99866) 239-11-51, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_ raqamli reysr bayonnomasi)

**T.F.Rajabov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash raisi, b.f.d.

**M.S.Kuziyev**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.f.d. (PhD), dotsent

**X.Q.Xaydarov**  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** O‘simliklar dunyosi biologik xilma-xilligini saqlashda tabiiy ekotizimlarga antropogen ta’sirni kompleks baholashga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lamli kengaymoqda. Inson faoliyati natijalari sayyoramizning har bir nuqtasida biologik xilma-xillikning barcha komponentlariga, shu jumladan o‘simliklar dunyosiga ham bevosita o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida bir qancha o‘simlik turlari, populyatsiyalar va ularning o‘sinh joylarini alohida muhofazaga muhtoj bo‘lib qolayotganligi kuzatilmoqda. Shu o‘rinda, asosan antropogen omil tufayli soni va areali sezilarli qisqarib borayotgan dorivor o‘simliklarni populyatsiyalari zamonaviy holatini baholash, abiotik ta’sirlar kuchini baholash hamda keyingi rivojlanish holati monitoring qilib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklar populyatsiyalarining qisqarish sabablarini aniqlash, ularning jamoadagi o‘rnini baholash va statistik tahlil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada, areali qisqarayotgan dorivor turlarni saqlash bo‘yicha xalqaro tizimlar joriy qilinib, populyatsiyalarni tiklash va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, turli ekologik sharoitlarda o‘sadigan, areali torayib borayotgan dorivor o‘simliklarning ontogenetik va strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish, zamonaviy monitoring usullari yordamida ularning holatini baholash dolzarb ahamiyatga ega, xususan, respublikamiz hududida *Leontice* L. turkum turlarining tarqalishi, senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi aniqlash, populyatsion baholash hamda o‘simlik organlaridagi biologik faol moddalarning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Respublikamizda tabiiy dorivor o‘simliklarni yetishtirish, ularning tabiiy zaxiralarini mustahkamlash, istiqbolli o‘simlik turlarini turli iqlim sharoitlarida yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ularning fitokimyoviy tarkibini oshirish, tabiiy plantatsiyalarini yaratish, dorivor o‘simliklarning miqdoriy ko‘rsatkichlarini baholash, dorivor o‘simlik turlarining tarqalishi, ontogenetik strukturasi hamda muhofaza choralari ishlab chiqish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida<sup>1</sup> “dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish va hamda ekologik muammolarning oldini olish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib *Leontice* L. turlarining areallarini aniqlash, ularning senopopulyatsion va ekologik xususiyatlarini o‘rganish, iqlim o‘zgarishlariga moslanish jarayonlarini izotop tahlillarida ko‘rsatish hamda biologik faol moddalar tarkibini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2018 yil 19-dekabrda №1034-son "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrda PF-5863-son "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'simliklar senopopulyatsiyalarining zamonaviy holatini baholash va ularning ontogenezi, ontogenetik strukturalarini tadqiq qilishga oid tadqiqotlar B.A. Cheremushkina, A.Y. Astashenkov (2009, 2014), Sh.U. Saribaeva (2009), Y.B. Kolegova (2010, 2011, 2012), T.V. Leonova (2011), E.M. Oleynikova (2010, 2014, 2015), I.H. Barsaukova (2016), X.F. Shomurodov va boshq. (2017), O.S. Abduraimov (2017), A.Q. Axmedov (2018), A.N.Xujanov (2020), B.Sh. Habibullayev (2023) va boshqalarning tadqiqotlarida batafsil keltirilgan.

*L. incerta* ning urug'larini Markaziy Osiyoning cho'llarida turli fasllarda unib chiqishi J. Mamut va boshq. (2020), *L. ewersmannii* ning morfologik tuzilishi N.Axtaeva va boshq. (2021), hamda o'simliklarning tarkibida ko'plab xinolizidin alkaloidlari, taninlar, fenolik, flavonoidlar va boshqa ko'plab biologik faol moddalar va ularning qon tomir va silliq mushaklarga ta'sir qilishiga oid tadqiqotlar S. Shokatyari (2013), P. He, Q. Ma va boshq. (2019), Al-Snafi (2019), N. Maden, N.K. Omirzakova (2022, 2023) va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistondagi *Leontice* L. turkumining turlari tarkibida treterpen glikozidlarini aniqlashga oid tahlillar L.G. Mzhel'skaya, N.K. Abubakirov (1966, 1967, 1968) va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Respublikamizda *Leontice* L. turkumi turlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu sababli, *Leontice* L. turkumi turlari tarqalgan jamoalarida iqlim o'zgarishi va izotop ekologiyasi -  $\delta^{13}\text{C}$  ta'siri, senopopulyatsiyasi, ontogenezi, ontogenetik strukturasi va tiplari, qiyosiy fitokimyoviy tarkibini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti Dorivor o'simliklar va oziq-ovqat xavfsizligi kafedrasining "Dorivor va foydali o'simlik turlarini introduksiyalash, madaniylashtirishda bioekologik xususiyatlarini o'rganish hamda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** *Leontice* L. turkum turlarining senopopulyatsiyasi, ontogenetik strukturasi va senotik populyatsiyalari holatini baholash hamda hom ashyo organlari fitokimyoviy tarkibini aniqlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

*Leontice* L. turkum turlarining ekologik-fitosenotik tarqalish xususiyatlarini o'rganish;

tabiiy sharoitda turlar ontogenezi o'rganish asosida senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturasi va tiplarini aniqlash hamda holatini baholash;

iqlim o'zgarishlari sharoiti *Leontice* L. turkum turlarida kechayotgan jarayonlarni barqaror  $\delta^{13}\text{C}$  izotopi asosida baholash;

o'rganilgan turlar senotik populyatsiyalarining tarqalish xaritalarini tuzish;

*L. ewersmannii* va *L. incerta* ning qiyosiy fitokimyoviy tarkibini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** *Leontice* L. turkumining *Leontice ewersmannii* Bunge, *Leontice incerta* Pall. turlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** *Leontice* L. turkum turlarining ontogenezi, morfologiyasi, ekologiyasi va senopopulyatsiyalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada geobotanik, morfologik, biometrik, statistik hamda bioiqlimiy modellashtirish va xaritalash metodlaridan foydalanilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Ilk bor turli hududlardagi ekologik fitosenozlarida (cho'l, tog') tarqalgan *Leontice* L. turkum turlarining 16 senotik populyatsiyalari (*L. ewersmannii* 8 ta, *L. incerta* 8 ta) aniqlangan;

*Leontice* L. turkum turlarining ontogenezi davr va bosqichlarini aniqlash hamda farqli jihatlarini asoslash orqali senopopulyatsiyalarning ontogenetik strukturalari ajratilgan va tiplari ochib berilgan;

Iqlim o'zgarishlari sharoitida barqaror  $\delta^{13}\text{C}$  izotopi tahlillari asosida o'simlikda kechayotgan tolerantlik chegarasining ortib borish tendensiya izohlangan hamda regression tahlillar natijasida o'simliklarni stressga chidamlilik darajasi aniqlangan.

*Leontice* L. turkum turlari xom ashyo beruvchi organlarida to'plangan biologik faol moddalarning miqdori tahlil qilingan hamda ularni to'planishi tuproqdagi elementlar tarkibiga bog'liqligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

*Leontice* L. turkum turlari populyatsiyalarining respublika bo'ylab tarqalish areallariga oid GAT xaritalari shakllantirildi. Mazkur xaritalar populyatsiyalarning mavjud holati, soni, hududiy o'zgarishlari va ekologik xususiyatlarini aniq ko'rsatib, tabiiy o'simlik resurslarini muhofaza qilish bo'yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini yaratdi. Populyatsiya tarkibiga doir statistik ma'lumotlarning tahlili esa monitoring tizimini takomillashtirish va noyob o'simlik turlarni saqlash strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotlarda qo'llanilgan zamonaviy usullar hamda ilmiy yondashuvlar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, natijalarning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotlar davomida yig'ilgan gerbariy namunalari O'zbekiston Milliy gerbariy fondi (TASH) saqlanayotganligi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonda tarqalgan *Leontice* L. turkum turlari senopopulyatsiyalarining hozirgi holati kompleks baholanganligi, turlarning ontogenetik strukturalari va tiplari batavsil tavsiflanganligi, rivojlanish dinamikasiga ta’sir etuvchi ekologik omillar aniqlanganligi, turkum turlarining populyatsion barqarorligi, tiklanish salohiyati va ekologik moslanish mexanizmlarini ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Leontice* L. turkum turlari populyatsiyalarining hozirgi holati an’anaviy mezonlar asosida baholanib, turlar senotik populyatsiyalari strukturalarining tuzilishi, turkum turlarining tarqalishi bo‘yicha GAT xaritalari yaratilgan, ushbu xarita bo‘yicha olib borilgan monitoringlar asosida populyatsiyalar barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillar ta’siridan muhofaza qilish, o‘simlik tarkibida biologik faol moddalarning to‘planishini turli elementlar asosida oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** *Leontice* L. turkum turlarining senopopulyatsiyasi va ontogenetik strukturasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

*Leontice* L. turkum turlarining senopopulyatsiyasi va ontogenetik strukturasi mavzusi bo‘yicha olingan natijalar asosida tadqiqot olib borilgan hududlarda *Leontice* L. turkumi turlarining tarqalishi Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘iga joylashtirilgan (Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘ining 2025-yil 17-yanvardagi №025 sonli ma’lumotnomasi). Natijada Global biologik xilma-xillik ma’lumotlar tarmog‘ida (GBIF) O‘zbekiston hududi bo‘yicha *Leontice* L. turlarining geografik tarqalishiga oid ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini bergan;

*L. ewersmannii* va *L. incerta* turlaridan yig‘ilgan 100 dan ortiq gerbariy namunalari Markaziy Osiyo o‘simliklar dunyosi bo‘yicha eng yirik kolleksiyalardan biri O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob’yekti fondiga topshirildi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025-yil 13-martdagi 4/1255-636-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot hududidan yig‘ilgan gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) ilmiy noyob ob’yekti fondini boyitgan hamda O‘zbekiston florasining elektron ma’lumotlar bazasining axborot-tahlil tizimini shakllantirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.


**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Leontice L. turkum turlari bo‘yicha tadqiqotlar tahlili, obyekti va metodlari*” deb nomlangan birinchi bobning “*Leontice L. turkum turlari bo‘yicha tadqiqotlar tahlili*” birinchi bo‘limida *Leontice L. turkumining* o‘rganilish tarixi, dunyodagi zamonaviy tadqiqotlar tahlili, turkum bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. O‘zbekistonda *Leontice L. turkumining* 2 turi *L. ewersmannii* Bunge va *L. incerta* Pall. tarqalgan (1-pacm). *L. ewersmannii* – balandligi 50-60 sm ga yetadi. To‘pguli shoxlangan ko‘pgulli. Uchki ko‘sakchasi pishish vaqtida yorilib ochiladi, deyarli rangsiz. Kop‘ yillik. Quruq yerlarda, loyli gipsli, toshli va shag‘alli yon bag‘irlarda, qumli va gil-sho‘r tuproqlarda, daryo vodiylari bo‘ylab tekislikdan quyi tog‘ pog‘onasigacha tarqalgan. *L. incerta* Pall. - balandligi 20 sm gacha. To‘pguli shoxlanmagan. Ko‘sakchasi pishish vaqtida yorilib ketmaydi, yuqori qismi och binafsha rangda. Ko‘p yillik. Loyli, shag‘alli, shag‘alli-toshli yon bag‘irlarda, qumli va sho‘r tuproqlarda o‘sadi. Sho‘rlangan, har xil o‘tli o‘simliklar jamoasida, saksovolzorlarda tekislikdan to tog‘ etaklarigacha bo‘lgan tuproqlarda tarqalgan.




**1-rasm.** *L. ewersmannii* Bunge (a) *L. incerta* Pall. (b)

Ikkinchi bo‘limda tadqiqotning obyekti va metodlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Turlarning ontogenezini o‘rganish T.A.Rabotnov va A.A.Uranov metodlaridan foydalanildi. Turning yosh tarkibi 3 davrga bo‘lib o‘rganildi (*j*, *im*, *v*, *g*, *s*). Senopopulyasiyalar (SP) strukturasi umum qabul qilingan metodlardan foydalanildi. Senopopulyasiya tiplarini tadqiq etishda A.A. Uranov va O.B. Smirnovalar, senopopulyasiya holatini baholashda organizm va populyasion belgilarni L.B.Zaugol‘nova va senopopulyasiya “del’ta-omega” yosh indeksini tavsiflashda L.A.Zhivotovsky, A.A.Uranovlar taklif etgan metodlardan

foydalanildi. Senopopulyasiyalar strukturasi aniqlashda transekt tashlash (10x1) metodi qoʻllanildi. Xaritalar Arc-GIS.10.8 dasturida tayyorlandi. Iqlim maʼlumotlar *worldclim.org* bazasidan olingan. Oʻsimliklarning fitokimyoviy tarkibi OʻzR FA Bioorganika institutining laboratoriyasida makro va mikroelementlarni plazmalar induktiv bogʻlangan mass-spektrometriya (ISP-MS) metodi asosida tahlil qilindi. Tuproq va oʻsimlikning yer ostki qismi elementar tarkibi statistik tahlillari *R-Studio* dasturida *Anova* test qilindi.

Dissertatsiyaning “***Leontice L. turkum turlari senopopulyatsiyalarining ekologik-fitotsenotik tavsifi***” nomli ikkinchi bobi birinchi boʻlimida turkum turlari senopopulyatsiyalarining tavsifi keltirilgan. Tadqiqotlar mobaynida Qizilqum choʻllari, Zarafshon va Nurota togʻlarda tarqalgan *Leontice L.* turkumi boʻyicha 16 ta senopopulyasiya ajratildi. Tadqiqotlar davomida turli ekologik-fitosenotik sharoitlarda *L. ewersmannii* ning 8 ta senopopulyasiyasi ajratildi (2-rasm).

*L. ewersmannii* ning dastlabki 4 ta senopopulyatsiyasi togʻ va togʻ oldi mintaqalaridan shundan: Hazrati Bashir hududidan efemer va efemeroid yantoqzor (Sp1), Omonqoʻton hududidan kovrakli-butali-har-xil oʻtloqzor (Sp2), Pangat hududidan har-xil oʻtli boʻtazor (Sp3), Nurota togʻ tizmasi Tikchasoy hududidan butali-har-xil oʻtloqzor (Sp4) assotsiatsiyasidan ajratildi. Toshli-shagʻalli tuproqlardan ajratilgan mazkur senopopulyatsiyalar tarqalgan hudud yer sathini oʻsimliklar bilan qoplanish darajasi 70-75% ni tashkil etdi.




**2-rasm.** *L. ewersmannii* senopopulyatsiyalarining tarqalish xaritasi

Turlar tarkibi ushbu senopopulyatsiyalarda nisbatan yuqori boʻlib, 30 tagacha yetishi aniqlandi. Mazkur senopopulyatsiyalarda *Alhagi kirgisorum* (Sp1), *Plantago lanceolata* (Sp2), *Lonicera nummularifolia* (Sp3) va *Trifolium repens* (Sp4) larning dominantlik qilishi kuzatildi. Ishtirokchi turlar sifatida *Carex pachystilis*, *Ferula kuhistanica*, *Prunus spinosissima*, *Prangos pabularia* va *Rosa canina* boshqalarni koʻrsatish mumkin.

Navbatdagi 4 ta senopopulyatsiyalar Janubi-Gʻarbiy Qizilqumda efemer-efemeroidli-shuvoqzor (Sp5), oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzor (Sp6), har-xil oʻtli-oq saksovulli-kavrakzor (Sp7) hamda har-xil oʻtli-kovrakli-shuvoqzor (Sp8) jamoalari tarkibida ajratildi. Ushbu senopopulyatsiya (Sp5, Sp6, Sp8) larda *Artemisia diffusa*, Sp7 da *Ferula foetida* ning dominant ekanligi qayd etildi. Ishtirokchi turlar sifatida *Carex physoides* (Sp5), *Leontice ewersmannii* (Sp6), *Haloxylon aphyllum* (Sp7), *Ferula foetida* (Sp8), turlar qayd etildi. Yuqoridagi ushbu senopopulyatsiyalarda proyektiv qoplanish darajasi 15-25% dan oshmadi. Jamoalardan 15-16 oʻsimlik turi roʻyxatga olindi.


*L. incerta* ning 8 ta senopopulyatsiyasi Janubiy-Gʻarbiy Qizilqum hududida tarqalgan. Kuljuktogʻ hududida efemer va efemeroidli-isiriqli-shuvoqzor (Sp9), Bedorota (Uchquduq) dan kovrakli-efemeroidli-isiriqzor (Sp10), Bukantogʻdan har-xil oʻtli efemerli-isiriqzor (Sp11), Qushgʻarota efemeroidli-oq saksovulli-shuvoqzor (Sp12), Koʻkchatogʻ hududidan oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzor (Sp13), Navoiy Zarafshon yoʻli (176 km)ning kovrakli-har-xil oʻtli-shuvoqzor (Sp14), Daugustogʻ (7 km) har-xil oʻtli-kovrakli-shuvoqzor (Sp15), Tomdi (Ajriqti qishlogʻi) efemer-efemeroidli-isiriqzor (Sp16) assotsiatsiyasidan ajratilgan senopopulyatsiyalar hisoblanadi.



**3-rasm.** *L. incerta* senopopulyatsiyalarining tarqalish xaritasi

Toshli-shagʻalli tuproqlardan ajratilgan mazkur senopopulyatsiyalar tarqalgan hudud yer sathini oʻsimliklar bilan qoplanish darajasi 20-25% ni tashkil etdi. Senopopulyatsiyalarda turlar tarkibi kam boʻlib, 19 tagacha yetishi aniqlandi. Ushbu senopopulyatsiyalarda *Artemisia diffusa* (Sp9, 12, 13, 14, 15) va *Peganum harmala* (Sp10, 11, 16) ning dominantlik qilishi kuzatildi. Ishtirokchi turlar (subdominant) sifatida *Peganum harmala* (Sp9), *Poa bulbosa* (Sp10), *Papaver pavoninum* (Sp11), *Haloxylon persicum* (Sp 12), *Leontice ewersmannii* (Sp 13), *Hordeum murinum* (Sp 14), *Ferula varia* (Sp 15), *Bromus scoparius* (Sp 16) lar hisoblaniladi (3-rasm).

Bobning ikkinchi bo‘limida *Leontice* L. turkum turlarining barqaror izotop tahlili keltirilgan (4-rasm). Barqaror izotop tahlillari o‘simliklarning ekologiyasi, taqsimlanishi va resurslardan foydalanish samaradorligini tushunish uchun qulay vositadir (Biedenbender va boshq. 2004; Bai va boshq. 2009). Xususan, o‘simliklardagi uglerod, azot va kislorodning barqaror izotop signallari (an‘anaviy ravishda  $\delta^{13}\text{C}$  va  $\delta^{18}\text{O}$  sifatida ifodalanadi) resurslarni o‘zlashtirish va ulardan foydalanish, shuningdek, o‘simliklarning biotik va abiotik muhit bilan o‘zaro ta‘sirining kuchli izlari hisoblanadi (Dawson va boshqalar. 2002).




**4-rasm.** *L. incerta* ning hozirgi va tarixiy barglardagi  $\delta^{13}\text{C}$  izotop tarkibini tahlili

4-rasmning (A) qismida o‘simlik bargidagi tarixiy va hozirgi davrlarning  $\delta^{13}\text{C}$  qiymatlarini solishtirildi. (B) qismida *L. incerta* uchun  $\delta^{13}\text{C}$  va yog‘ingarchilikga bog‘liqligi regression tahlil qilingan.

Tahlilga ko‘ra yog‘ingarchilik kamayishi  $\delta^{13}\text{C}$  izotopining nisbati ortishi mumkinligi aniqlandi ya’ni yog‘ingarchilik -30,36 mm ga kamayganda  $\delta^{13}\text{C}$  izotopining nisbati 0,04‰ ga oshgani va regression bog‘liqligi  $R^2=0,54$  ekanligi aniqlandi. Barcha nuqtalarni hisobga olsak, *L. incerta* quruq iqlim sharoitlariga nisbatan chidamli o‘simlik ekanligi aniqlandi.


Dissertatsiyaning “*Leontice* L. turkum turlarining ontogenezi” deb nomlangan uchinchi bobning birinchi bo‘limida *L. ewersmannii* ontogenez davrlari keltirilgan bo‘lib, asosiy belgilaridan biri, yer ostki poyasini o‘rab turgan barg qinidan hosil bo‘lgan qobiqning qalinlashishi va to‘q jigar rangli bo‘lishi, to‘pgulda gullar soninig kamayishi, o‘simlik bo‘yining past bo‘lishi, ildizpoyasining qadur-budurligining ortishi, barglarining o‘lchamini kichrayishi bilan izohlanadi. Bu davrda ildizpoyasining uzunligi 8-9 sm, eni 5-6 sm, ildizchalari soni 10-15 ta ni tashkil etadi. Bargining uzunligi 4-5 sm, eni 2,5-3,0 sm, yer ostki qismining (ildizpoya) uzunligi 20-40 cm. yuvenil holatining (j)

davomiyligi 2 yil davom etadi. Qiyosiy tahlillar asosida *L. ewersmannii* ontogenezining davomiyligi 20-25 yil atrofida bo‘lishi ma’lum bo‘ldi (5-rasm).



**5- rasm.** *L. ewersmannii* ning ontogenez bosqichlari

Bobning ikkinchi bo‘limida *L. incerta* ning ontogenez davrlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘simlikning asosiy belgilaridan biri ontogenezning juvenil (*j*), immatur (*im*) va virginil (*v*) davrlarida barg yaprog‘ining qirqilganlik darajasining murakkablashuvi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, *L. incerta* ning ontogenez davomiyligi 15-20 yil bo‘lishi ma’lum bo‘ldi (6- rasm). Dissertatsiyaning “**Senotik populyatsiya tiplari va ontogenetik strukturasi**” nomli to‘rtinchi bobini birinchi bo‘limida *L. ewersmannii* senotik populyatsiya tiplari va ontogenetik strukturasi o‘rganishga bag‘ishlangan. *L. ewersmannii* 8 ta senopopulyatsiyalari ajratildi, shundan 1, 2, 3, 4 senopopulyatsiyalar Nurato tog‘i va Omonqo‘ton hududidriga qarashli maydonlardagi assotsatsiyalardan ajratilgan, qolgan 5, 6, 7, 8 senopopulyatsiyalar esa Qizilqum hamda uning qoldiq tog‘ qismiga qarashli hisoblanadi. A.A.Uranov va O.V.Smirnova (1969) klassifikatsiyasi bo‘yicha, o‘rganilgan senopopulyatsiyalar to‘liq a‘zoli (bundan 4, 5, 6, 7, 8 Sp istisno) hisoblanadi. Ushbu senopopulyatsiyalarda juvenil (*j*) va senil (*s*) holatdagi tuplarning uchramasligi ularning antropogen bosim hamda ekstrimal muhit bilan izohlanadi. *L. ewersmannii* senopopulyatsiyalarining ontogenetik strukturalari chap tomonlama (Sp 1, 4, 6, 7, 8) va bimodal (Sp 2, 3, 5) tipga mansubligi aniqlandi. Chap tomonlama spektr 1 va 4-senopopulyatsiyalar ontogenetik spektrida absolyut maksimum juvenil (*j*) va (*im*) immatur bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bunday tipdagi spektrlar yog‘ingarchilik bilan nisbatan ta‘minlangan hududlarda va o‘simlik mo‘l urug‘ hosil qilgan sharoitlarda shakllanadi. Tog‘da joylashgan senopopulyatsiyalarda yog‘ingarchilik bilan ta‘minlanishi va atmosfera yog‘inining tuproqqa shimilishi nuqtai-nazardan hamda jamoaning qoplanganlik darajasi 75-80%, qolaversa chorva mollari boqilishi cheklanganligi nisbatan maqbul hudud ekanligidan dalolat beradi.




**6-rasm.** *L. incerta* ning ontogenez bosqichlari

Bu o‘z navbatida yosh o‘simliklarning yashovchanligiga ijobiy ta‘sir qilishi, 4-senopopulyatsiyaning ontogenetik spektrida yuqori cho‘qqi yuvenil va immatur tuplarga to‘g‘ri keladi. Mazkur senopopulyatsiyada yuvenil tuplarning ko‘pligi (*j*), bir tomondan o‘simlikning urug‘idan yaxshi ko‘paya olayotganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan ushbu ontogenetik holatni Qizilqum hududidagi *L. ewersmannii* ning boshqa senopopulyatsiyalaridagi yuvenil (*j*) davridan nisbatan ancha uzoqroq davom etishi bilan izohlanadi. *L. ewersmannii* o‘simligining senopopulyatsiyalaridagi ontogenetik strukturasi ushbu diagrammalarda tasvirlangan (7-rasm). Diagrammada ikkita turli senopopulyatsiyalar (*Sp 1* va *Sp 4*) bo‘yicha ontogenetik holatlar: X o‘qi bo‘ylab harflar turli ontogenetik bosqichlarni ifodalaydi (*p* – maysa, *j* – yuvenil, *im* – immatur, *v* – virginil, *g1*, *g2*, *g3* – generativ bosqichlar, *ss* – subsenil, *s* – senil). Har ikkala senopopulyatsiyada ham yuvenil va immatur bosqichdagi o‘imliklar soni nisbatan ko‘proq, bu esa populyatsiyaning yoshga moyilligi borligini ko‘rsatadi.

Barqarorlik darajasi: 1-senopopulyatsiya va 4-senopopulyatsiya orasidagi taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, ikkala populyatsiyada ham yuvenil (*j*) va immatur (*im*) bosqichdagi individlar ustunlik qiladi. Bu ularning o‘sinh va rivojlanish qobiliyatining yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Generativ individlar, *g1*, *g2* va *g3* bosqichlari past ulushga ega bo‘lib, bu populyatsiyada reproduktiv yetilishga erishayotgan individlar sonining kamligini anglatadi. Senil (*s*) bosqichdagi individlar juda kam yoki umuman yo‘q, bu esa populyatsiyalarning hali qarish jarayonida emasligini bildiradi. Ushbu senopopulyatsiyalarda yosh populyatsiya strukturasi ega bo‘lib, regeneratsiya darajasi nisbatan yuqori.

Bu esa muhit sharoitlari yosh individlarning rivojlanishiga qulay ekanligini ko‘rsatadi. Ammo generativ bosqichdagi individlar sonining kamligi uzoq muddatli populyatsiya barqarorligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin. Har bir

diagramma ma'lum bir senopopulyatsiyaning ontogenetik tuzilishini aks ettiradi (Sp 6, Sp 7, Sp 8).



**7-rasm.** *L. ewersmannii* senopopulyatsiyalarining chap tomonlama ontogenetik spektri


6-senopopulyatsiyada virginil (*v*) va immatur (*im*) bosqichdagi individlar ustunlik qiladi. Generativ bosqichlar ( $g^1$ ) nisbatan kam bo'lsa-da, populyatsiyaning reproductiv imkoniyatlari mavjud. yuvenil (*j*) va maysa (*p*) bosqichlarining nisbatan past ulushi populyatsiyada tabiiy yangilanish jarayonining cheklanganligini ko'rsatishi mumkin.

7-senopopulyatsiyada virginil bosqichi (*v*) populyatsiyaning asosiy qismini tashkil qiladi, bu esa ushbu populyatsiyada asosan o'sish va rivojlanish jarayonining ustun ekanligini ko'rsatadi.









Immatur (*im*) bosqichdagi individlar ham sezilarli darajada mavjud, bu esa populyatsiyaning yosh bo'lishiga ishora qiladi. Generativ ( $g^1$ ) bosqichdagi o'simliklar mavjud bo'lsa-da, juda oz sonni tashkil qiladi, bu esa kelajakda populyatsiyaning generativ qobiliyatining pasayishi mumkinligini bildiradi. 8-senopopulyatsiyada immatur (*im*) va virginil (*v*) bosqichdagi individlar ustunlik qiladi. Generativ ( $g^1$ ) bosqichdagi o'simliklar ma'lum foizni tashkil qiladi, bu esa populyatsiyada ko'payish jarayonining davom etayotganini bildiradi. Senil (*s*)

bosqichdagi individlar deyarli yo‘q, bu populyatsiyaning hozircha qarish jarayonida emasligini ko‘rsatadi. Yosh populyatsiya strukturalari – immatur va virginil bosqichdagi individlarning soni yuqori bolishi populyatsiyalarning yoshligini va rivojlanayotganligini ko‘rsatadi. Generativ individlar soninig kamligi ( $g^1, g^2, g^3$ ) – 6-senopopulyatsiya va 7-senopopulyatsiyalarida, ularning uzoq muddatli barqarorligini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Yangilanish jarayoni – yuvenil ( $j$ ) va maysa ( $p$ ) bosqichdagi o‘simliklar nisbatan kam bo‘lsa-da, populyatsiya tabiiy ravishda tiklanish imkoniyatiga ega. Ekologik muhit ta‘siri – ushbu struktura populyatsiyalarning ekologik sharoitga moslashganligini, ammo kelajakda generativ bosqichdagi individlar kamayishi bilan barqarorlik muammolari yuzaga kelishi mumkinligidan dalolat berabi. Shu sababli, muhit omillarini tahlil qilish va populyatsiyani saqlab qolish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Ushbu populyatsiyalarni uzoq muddatli saqlab qolish uchun ekologik monitoring olib borish va tabiiy yangilanish jarayonini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Senopopulyatsiyalarda tuplar miqdori ularning holatini baholashda asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. *L. incerta* ontogenetik strukturasi delta-omega yosh qiymati aniqlandi. Bunga ko‘ra 9-senopopulyatsiya yetilayotgan tipga yaqin ekanligi aniqlandi hamda 10,11,12-senopopulyatsiyalarda generativ davrdagi tuplar sonidan ( $j, im, v$ ) bosqichdagi tuplar soni sezilarli darajada ko‘p ekanligi qolaversa, 13,14,15,16 – senopopulyatsiyalarda esa bu holat aksincha generativ tuplar soni birmuncha ustunlik qilishi aniqlandi (8-rasm).



**8-rasm.** *L. incerta* ontogenetik strukturasi delta-omega qiymati



**Izoh:** Organizm belgilari: 1 - RH (%); 2 - Tuplar biomassasi, g; 3 - O'simlik bo'yi, mm; 4 - Bargning uzunligi, mm; 5 - Ildizpoyasi diametri, sm; Populyatsion belgilar: 6 - Tuplar zichligi 1 m<sup>2</sup>, dona; 7 - Turning qoplanish darajasi (%); 8 - S tuplar ulushi (%); 9 - g tuplar ulushi (%); 10 - j-v tuplar ulushi.

**9-rasm.** *L. ewersmannii* senopulyatsiyalarini holatini baholash

Dissertatsiyaning **“O‘rganilayotgan turlarning senotik populyatsiyalari holatini baholash”** nomli beshinchi bobning birinchi bo‘limida *L. ewersmannii* senotik populyatsiyalari holatini baholashga bag‘ishlangan. O‘simlikning organizm belgilarining yuqori qiymati senopopulyatsiyalarda (Sp 1,2,3,4) kuzatildi. Ushbu senopopulyatsiyalardan efemer-efemeroidli-yantoqzor assosatsiyada tuplar biomassasi 58,3 g ni tashkil etgan bo‘lsa, generativ tuplarning reproduktiv harakatchanligi 81,3% ga tengligi qayd etildi.

Organizm belgilarining yuqori ko‘rsatkichlari shuningdek o‘simlikning bo‘yi 52,1 cm, barglar uzunligi 21,7 cm va ildizpoya diametri 16,7 sm bo‘lishi aniqlanildi (5 ball). Bunday yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan mazkur senopopulyatsiya Kitob tumani, Hazratibashr hududiga yaqin maydonlarga to‘g‘ri keladi. Tog‘da havo namligini nisbatan yuqori bo‘lishi va bu holat o‘simlikning o‘sib rivojlanishi uchun qulay sharoit hisoblanadi. 2, 3 va 4-senopopulyatsiyalarda ham yil davomida namgarchilikni yetarli bo‘lishi, tur organizm belgilarining yuqori bo‘lishiga imkon yaratadi (4-5 ball). Ayniqsa, kovrakli-butali-har xil o‘tloqzor (Sp2) jamoasida tarqalgan tuplarning organizm belgilari nisbatan yuqori bo‘lishi kuzatildi (9-rasm). Bobning ikkinchi bo‘limida *L. incerta* senotik populyatsiyalari holatini baholashga qaratilgan. *L. incerta* ishtirokida Qizilqumning turli ekotoplarida tarqalgan 8 ta senopopulyatsiyasi baholandi. Reprodukativ harakatchanlik (RH, %) I ball 20,86-27,69%, V ball 55,80-66,53% RH populyatsiyaning ko‘payish qobiliyatini ifodalaydi. Baland ballarda (V ball) bu ko‘rsatkich yuqori bo‘lib, populyatsiya yaxshi regeneratsiya kuzatildi. Past ballarda esa ko‘payish qobiliyati nisbatan kamroq. Tuplar biomassasi (g) I ball 0,32-1,39 g, V ball 7,89-11,43 g. Biomassa ortishi o‘simliklarning umumiy rivojlanishi va ekologik sharoitga moslashish darajasini bildiradi. I ballik populyatsiyalarda biomassa juda past, V ballik populyatsiyalarda esa yaxshi o‘sish kuzatildi. Qolgan senopopulyatsiyalar cho‘l hududlarida joylashanligi va antropogen omillar ta’siri yuqoriligi (chorva mollari boqilishi, rangli metal konlari majmuasi va boshq.) sababli senopopulyatsiyalarda (Sp 5,6,7,8) organizm va populyatsion belgilarning past qiymatga ega ekanligi aniqlanildi. Yuqoridagi senopopulyatsiyalarda organizm belgilarining ko‘rsatkichlari 3 balldan oshmasligi kuzatildi. Tuplar biomassasi 9,2-18,7 g ni, o‘simlik bo‘yi 19,9-29,1 cm, ildizpoya diametri 9,9-12,3 cm, barglar uzunligi 10,1-13,4 cm ni tashkil etadi. Organizm va populyatsion belgilarning eng past ko‘rsatkichlari 5 va 8- senopopulyatsiyalarda kuzatildi.


Dissertatsiyaning **“Leontice L. turkum turlarining hududlar bo‘yicha qiyosiy fitokimyoviy tahlili”** nomli oltinchi bobi o‘simlikning asosiy xom ashyosi fitokimyoviy tarkibini hamda tuproqning kimyoviy tarkibi bilan bog‘liqlik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. O‘simlik xom ashyosini tarkibi senopopulyatsiyalar kesimida qiyosiy tahlil qilingan (1-jadval). Flavonoidlar miqdori kovrakli-butali-har-xil o‘tloqzor, har-xil o‘tli butazor va oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzor senopopulyatsiyalariga nisbatan efemer va efemeroid yantoqzor, butali-har-xil o‘tloqzor va har-xil o‘tli-kovrakli-shuvoqzordagi senopopulyatsiyalarda yuqori ekanligi kuzatildi.

### 1-jadval

*L. ewersmannii* tugunaksimon ildizpoyasidagi flavonoidlar tahlili (mg/g hisobida)

№	SP	Digidro- kversitin	Lyutio- nin	Rutin	Roza- Vin	Kver- sitin	Salid- rozid
1	Kovrakli butali har xil o'tloqzor	55.7	9.45	12.5	20.1	2.5	13.6
2	Efemer efemeroidli yantoqzor	87.3	11.6	22.4	17.3	3.7	18.2
3	Butali har xil o'tloqzor	34.6	1.5	24.3	18.1	19.5	31.2
4	Har xil o'tli butazor	44.6	3.1	21.4	15.6	2.4	17.6
5	Oqsaksovulli efemeroidli shuvoqzor	41.2	10.8	18.3	9.8	3.45	20.4
6	Har xil o'tli kovrakli shuvoqzor	85.9	7.84	11.4	29.7	0.59	19.5

Shunga binoan, efemer va efemeroid yantoqzor senopopulyatsiyasida digidrokversitin – 87,3 mg/g, lyutionin – 11,6 mg/g, butali-har-xil o'tloqzorda rutin – 24,3 mg/g, kversitin – 19,5 mg/g, salidrozd – 31,2 mg/g; har-xil o'tli-kovrakli-shuvoqzorda rosavin – 29,7 mg/g ko'p miqdorda to'planishi aniqlandi. Digidrokversitin – 34,6 mg/g, lyutionin – 1,5 mg/g butali-har-xil o'tloqzorda, rutin – 11,4 mg/g, kversitin – 0,59 mg/g har-xil o'tli-kovrakli-shuvoqzorda, rosavin – 9,8 mg/g oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzorda, salidrozd – 13,6 mg/g kovrakli-butali-har-xil o'tloqzor senopopulyatsiyalarida kam miqdorda to'plandi.



**10-rasm.** *L. incerta* tugunaksimon ildizpoya va tuprog'ining elementlar tarkibi (mkg/g hisobida)

*L. incerta* tugunaksimon ildizpoyasi va tuprog'ining elementlar tarkibi ham tahlil qilindi (10-rasm). Oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzor

senopopulyatsiyasidagi *L. incerta* ning tugunaksimon ildizpoyasida Na – 430, Al – 400, K – 4300, Ca – 3500, Fe – 380, Sr – 62.0 mkg/g tuproq tarkibiga ko‘ra, Na – 9005, Mg – 17780, Al – 67410, K – 13080, Ca – 59280, Fe – 36060, Ba – 558, Sr – 258 mkg/g yuqoriligi aniqlandi.

Efemer va efemeroidli-isiriqli-shuvoqzor senopopulyatsiyasidagi *L. incerta* ning tugunaksimon ildizpoyasida Na – 820, Al – 640, P – 960, K – 8000, Ca – 8300, Fe – 700, Sr – 180 mkg/g tuproq tarkibiga ko‘ra, Na – 7296, Mg – 17930, Al – 62600, P – 425, K – 13650, Ca – 60850, Ti – 2262, Fe – 32010, Ba – 558, Sr – 222 mkg/g yuqoriligi aniqlandi. *L. incerta* ning tugunaksimon ildizpoyasi va tuproq tarkibini tahlil qilganda, oq saksovulli-efemeroidli-shuvoqzor senopopulyatsiyasidan olingan natijalarga qaraganda, efemer va efemeroidli-isiriqli-shuvoqzor senopopulyatsiyasidagi kimyoviy tahlil natijalari yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

## XULOSALAR

“*Leontice* L. turkum turlarining senopopulyatsiyasi va ontogenetik strukturasi” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. *Leontice* L. turkumi turlari Qizilqum cho‘llari, Zarafshon, Nurota tog‘lari va unga yondosh hududlarning toshli-shag‘lli, qumli va loyli-mayda shag‘alli tuproq tiplariga mansub turli ekologik-fitotsenotik sharoitlarida uchrab o‘rganilgan 16 ta senopopulyatsiyalarda assektor sifatida qatnashadi.

2. *Leontice* L. tog‘ va cho‘lda mintaqalarida tarqalgan senopopulyatsiyalari barqaror  $C^{13}$  izotop tahlili asosan yog‘ingarchilik kamayishi  $\delta^{13}C$  izotopining miqdori (‰) o‘zgarishi aniqlandi ya’ni yog‘ingarchilik -33,18 mm ga kamayganda  $\delta^{13}C$  izotopining nisbati 0,02‰ ga oshganligi hamda regression bog‘liqligi  $R^2=0,85$  ekanligi aniqlandi. Bu yog‘ingarchilikning kamayishi izotop (‰) miqdori kamayishiga sabab bo‘lishi bilan izohlanadi.

3. *Leontice* L. turkum turlarining ontogenezi tabiiy sharoitda to‘liq (4 ta davr, 9 bosqich) o‘tishi aniqlandi. *L. ewersmannii* ning ontogenezning davomiyligi 20-25 yil, *L. incerta* ning 15-20 yil davom etishi qayd etildi.

4. *L. ewersmannii* va *L. incerta* ning mavjud senopopulyatsiyalari chap tomonlama ontogenetik spektrga ega. O‘simlikning barcha senotik populyatsiyalari bimodal ontogenetik strukturaga xos. Shu boisdan senopopulyatsiyalarda generativ individlarning ustunligi va populyatsiyalarning yangilanish dinamikasi yuqori bo‘lishi bilan izohlaniladi.

5. 16 ta senopopulyatsiyalardagi organizm va populyatsion belgilarning maksimal ko‘rsatkichlar qayd etilmaganligi *L. ewersmannii* ning kovrakli butali har xil o‘tloqzor va *L. incerta* ning har xil o‘tli kavrakli shuvoqzor senopopulyatsiyalarida turning ekologik optimumiga yaqinligi aniqlandi.

6. *Leontice* L. turkum turlarining tugunaksimon ildizpoyasi tarkibida aniqlangan biologik faol moddalar o‘simlik o‘sgan tuproqlar kimyoviy tarkibi bilan o‘zaro tahlil qilinganda, o‘zaro mutanosib ravishda mosligi aniqlangan. O‘simlik tarkibidan aniqlangan biologik faol moddalardan farmasevtika sanoati uchun xom ashyo sifatida foydalanish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.02.08 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА**

**БОБОКАНДОВ НОДИРЖОН ФАЗЛИДДИН УГЛИ**

**ЦЕНОПОПУЛЯЦИЯ И ОНТОГЕНЕТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ВИДОВ  
РОДА *LEONTICE* L.**

**03.00.05 – Ботаника**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Самарканд – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.4.PhD/B1014**

Диссертация выполнена в Самаркандском институте агроинноваций и исследований.  
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета ([www.samdu.uz](http://www.samdu.uz)) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Номозова Зебуннисо Бахроновна</b> кандидат биологических наук, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Шомуродов Хабибулло Файзуллоевич</b> доктор биологических наук, профессор <b>Келдияров Худаяр Отамурадович</b> кандидат биологических наук, профессор
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Бухарский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.02.08 при Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова. (Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15. Актовый зал Института биохимии Самаркандского государственного университета. Тел.: (+99866) 239-11-40; факс (+99866) 239-11-51; E-mail: [devonxona@samdu.uz](mailto:devonxona@samdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова (зарегистрирован за № \_\_\_\_). Адрес: 140104, г. Самарканд, Университетский бульвар, дом 15, Центр информационных ресурсов. Тел.: (+99866) 239-11-40.

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от « \_\_\_\_\_ » 2025 года)

**Т.Ф. Ражабов**  
Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней, д.б.н

**М.С. Кузиев**  
Ученый секретар научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
(PhD), доцент

**Х.К.Хайдаров**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
учёных степеней, д.б.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Расширяются исследования, направленные на комплексную оценку антропогенного воздействия на природные экосистемы в целях сохранения биоразнообразия растительного мира. Результаты деятельности человека оказывают непосредственное влияние на все компоненты биоразнообразия, включая растительный мир, во всех уголках нашей планеты. В результате отмечается, что ряд видов растений, популяций и мест их обитания нуждаются в особой охране. В связи с этим большое научное и практическое значение имеет оценка современного состояния популяций лекарственных растений, численность и площади которых существенно сокращаются, главным образом, под воздействием антропогенных факторов, оценка силы абиотических воздействий и мониторинг состояния дальнейшего развития.

Особое внимание уделяется использованию современных информационных технологий для определения причин сокращения популяций лекарственных растений, произрастающих в естественных условиях мира, оценки их места в сообществе и статистического анализа. В связи с этим внедрены международные системы сохранения лекарственных видов с сокращающимся ареалом, разработаны меры по восстановлению популяций и их рациональному использованию. Актуальным является изучение онтогенетических и структурных особенностей лекарственных растений, произрастающих в различных экологических условиях и с сокращающимся ареалом, а также оценка их состояния с использованием современных методов мониторинга. В частности, распространение видов рода *Leontice* L. на территории нашей республики, онтогенетическая структура их ценопопуляций, оценка состояния популяций, определение количественных и качественных показателей биологически активных веществ в органах растений являются актуальными научными и практическими задачами.

В нашей республике достигаются определенные результаты в возделывании природных лекарственных растений, укреплении их природных запасов, разработке технологий выращивания перспективных видов растений в различных климатических условиях, повышении их фитохимического состава, создании естественных насаждений, оценке количественных показателей лекарственных растений, распространения видов лекарственных растений, онтогенетической структуры и разработке мер защиты. В новой Стратегии развития Узбекистана по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2022-2026 годы обозначены важные задачи по<sup>1</sup> «регулированию обращения лекарственных средств и изделий медицинского назначения и предотвращению экологических проблем». Исходя из этих задач, определение ареалов видов рода *Leontice* L., изучение

---

